

ILMIY TARJIMA ADABIYOTLARINING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI

Sharipova Gulshan Asad qizi

TDYU ARM

Xorijiy axborot-kutubxona resurslari bilan ishlash bo'limi mudiri

Xalikova Muxabbat Akbar qizi

TDYU ARM

Axborot texnologiyalari bo'yicha yetakchi mutaxassis

ANNOTATSIYA

Maqolada tarjima adabiyotlarning jamiyat rivojidadagi o'rni, tarjima kitoblar sonini ko'paytirish masalasi, hozirgi davr o'quvchisi uchun tarjima adabiyotlarning muhimlik darajasi, hamda bu sohadagi muammolar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tarjima adabiyotlar, xorijiy darsliklar tarjimasi, tarjima muammolari.

ABSTRACT

The article discusses the role of translated literature in the development of society, the issue of increasing the number of translated books, the level of importance of translated literature for the modern reader, and the problems in this field.

Key words: translation of literature, translation of foreign textbooks, translation problems.

Ko'p asrlik boy tariximizdan ma'lumki, ajdodlarimiz ilm-fan taraqqiyoti yo'lida ko'zga ko'ringan kashfiyotlar va faxrlansa arzigulik yangiliklar yaratishgan. Buyuk bobokalonlarimiz qoldirgan ilmiy, ma'naviy va diniy merosni sanab adog'iga yetish

amri mahol. Soʻz isboti bilan boʻlishi uchun Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini oʻrta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlarimiz Muhammad al-Xorazmiy, Abu Iso Muhammad Termiziy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulugʻbek merosini misol qilish mumkin. Ularning noyob ilmiy asarlari oʻrta asrlarda Yevropada ilmiy til hisoblangan lotin tiliga, u orqali Yevropaning boshqa tillariga tarjima etilgan. Juda koʻplab buyuk mutafakkir ajdodlarimiz asarlari turli tillariga tarjima qilingan, hamda hozirgi kunda butun dunyo tan olgan oliygohlarda asosiy dastur sifatida foydalanib kelinadi.

Hozirgi kunda taʼlim dargohlarida ilm olayotgan talaba dunyodagi oʻzgarishlardan, yangi kashfiyotlar va ilm-fan taraqqiyotiga oid muhim xabarlardan ishonchli manbalar orqali xabardor boʻlishi mumkin. Dunyo mamlakatlari taʼlim sohasida olib borilayotgan izlanishlar natijasidan asosan bir necha tillarni oʻzlashtirgan talaba baxramand boʻlishi, hamda oʻz dunyoqarashini kengaytirishi mumkin. Ammo til bilish darajasi biroz oqsaydigan yoki til oʻrganishga qiynaladigan talaba qanday qilib xorijiy tilda nashr qilingan eng sara darsliklar, oʻquv qoʻllanmalar va boshqa ilmiy adabiyotlardan foydalanadi. Bunga oddiy javob berishimiz mumkin, albatta internet tarmoqlaridagi koʻpgina asosi mavjud boʻlmagan yangiliklar hamda toʻliqsiz tarjimalar yordamida. Ammo boshqa joʻyali taklif ham bor. Tarjima adabiyotlarni koʻpaytirgan holda talabalar, oʻquvchilar va umuman kitobxonga ishonchli, aniq va muhim ilmiy yangiliklarni yetkazish mumkin.

Kasbiy tajridamizdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, xorijiy nashriyotlar tomonidan har bir taʼlim yoʻnalishi, fan sohalariga oid juda yaxshi adabiyotlar nashr qilingan va bu davom etmoqda. Ammo milliy darsliklarimizdagi maʼlumotlarning koʻpi maʼnan eskirgan gʻoyalar bilan boyitilgan. Xoʻsh, bu kitoblarni oʻqigan qay bir talaba oʻz kasbining mahoratli ustasi boʻladi deb ayta olamiz. Qayta qayta eski kitobni yangi tahrir ostida chop etishdan qanday foyda bor?

Deyarli har kuni jahon tajribasi degan soʻzni eshitamiz, lekin nega jahon tajribasidan unumli foydalanish uchun eng sara xorijiy darslik va oʻquv qoʻllanmalarni tarjimasini yoʻlga qoʻyishda faol harakatda emasmiz.

Doimo qayta qayta bir holatga duch kelaveramiz. Talabalar yakuniy imtihonlar davrida o'zbek tilidagi darsliklarni talashib tortishib o'qishadi. Hattoki eski nashrdagi, mazmun mohiyati eskirgan adabiyotlarni ham varaqlab chiqishlari mumkin. Ammo eng yangi ma'lumotlar, ilmiy yangiliklar bilan boyitilgan, eng so'nggi tadqiqot natijalari jamlangan xorijiy adabiyotlar foydalanuvchisi sanoqli. Chunki ushbu adabiyotlardan foydalanish uchun ko'pchilik talabalarning xorijiy til bilish darajasi yetarli emas. Yoki o'qituvchi tomonidan imtihon savollariga tayyorgarlik ko'rish jarayonida aynan qaysi darsliklardan foydalanish kerakligi aytib o'tilgan va bu darsliklar orasida xorijiy adabiyotlar topilmaydi, bo'lsa ham sanoqli.

Kompyuterlar, hatto yozuv mashinalari bo'lmagan zamonlarda ham kitoblar tarjima qilingan. Hozirgi taraqqiyot davrida tarjima kitoblar ta'lim, ilm-fan sohalarida o'ta muhim ahamiyat kasb etayotgan bir paytda nega xorijiy adabiyotlarni o'zbek tiliga tarjima qilish bunchalik sust amalga oshirilmoqda? Hatto shunday sohalar borki, ularni o'rganish uchun o'zbek tilidagi biror adabiyotni topish amri mahol. Misol uchun axborot texnologiyalarini mukammal o'rganishni istagan yosh talaba dasturlash bo'yicha asosan rus yoki ingliz tilidagi darsliklarni o'qishi kerak. To'g'ri hali bizning mutaxassislar bu kabi sohalar bo'yicha kitob yozish darajasida bilimga ega bo'lmasliklari mumkin. Lekin soha bo'yicha eng samarali darslik va o'quv qo'llanmalarni tarjima qilish imkoniyati mavjudku. Yoki talaba faqatgina kompyuter oldida soatlab o'tirib bir dasturni o'rganish uchun oylab vaqt sarflagani ma'qulmi? Biz o'zimiz biror soha yoki fan bo'yicha yangilik qilib, tajribalar o'tkazib, o'sha tajribalarimiz natijasini kitob shaklida nashr qilgunimizga qadar xorijiy mamlakatlar bu borada o'n, balki ellik yil bizdan ilgarilab ketmaydimi?

Tarjima kitoblarni ko'paytirmaslik uchun qanday bahonalarimiz bor? Axir har yili minglab kadrlar til bilish sertifikatlariga ega bo'lmoqdalar. Bundan tashqari xorijiy tillar bo'yicha mutaxassislar talaygina.

Ta'lim sifatini oshirish haqida qayta-qayta bong urilayotgan davralarda muhim yechimlar qatorida tarjima kitoblar masalasi ham chuqur o'rganib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Tarjima kitoblarni nashr qilish vazifasi topshiriq sifatida

berilishining o‘zi muammoga yechim bo‘la olmaydi. Har bir vazifa tizimli asosda yo‘lga qo‘yilsagina ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Har bir fan bo‘yicha eng yaxshi xorijiy adabiyotlar ro‘yxatini saralab olish va ulardan eng kerakli darsliklarni tarjimai ustida ishlash zarur. Bu jarayonda albatta professor- o‘qituvchilar, xorijiy tillarni mukammal o‘zlashtirgan mutaxassislar ishtiroki muhim.

Biror fan yo‘nalishi bo‘yicha eski darsliklarni qayta to‘ldirilgan nusxasini nashr qilishdan ko‘ra shu sohaga oid yangi xorijiy adabiyotni tarjima qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi nazarimda. Mutaxassislar oldiga yangi o‘quv qo‘llanma ishlab chiqish emas, eng sara xorijiy o‘quv qo‘llanmani tarjimai ustida ishlash vazifasi topshirilsa, ham o‘qituvchi, ham talaba uchun yanada ko‘proq yangi bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Tez sur‘atlarda rivojlanib borayotgan mamlakatimiz taraqqiyotida ta‘lim rivoji eng muhim o‘rinni egallaydi. Ta‘lim jarayonidagi rivojlanish ham jamiyat rivoji, ham mamlakat taraqqiyotiga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Shunday ekan, ta‘lim sifatini oshirishda o‘ta ahamiyatli bo‘lgan tarjima adabiyotlarni ko‘paytirish eng birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalardan biri bo‘lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.Academia.edu>
2. <https://econferenceseries.com>
3. <https://2ndsun.uz/index.php/yt/issue/view/19>